

Ona yurtning -oltin beshiging

TONG Yulduzi

№25 (66410)
2003 yil
30 iyun
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiga boshlagan

O'Z VAQTIDA O'QISAK EDI

Meni doimo bir savol qiynaydi: «Gazeta nega obunachilarga o'z vaqtida yetib bormaydi?» Balki ayrim tengdoshlarim «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini o'z vaqtida o'qishar. Biroq bizga juda kech yetib keladi.

Men ham «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lganman. Hamisha ikki-uch sonini bir qilib olib kelishadi.

Mana, yana qo'limda gazetaning 18-, 19-, 20- sonlari. Ularni bir kunda, ya'ni 27 mayda olib kelishdi.



Sahifalarini birma-bir varaqlayman. 19-sonida «Iqtisoddan saboqlar» ko'rik-tanlovining g'oliblari e'lon qilinibdi. Eng achinarlisi shundaki, g'oliblar ro'yxatida men ham bor ekanman. G'oliblarni esa poytaxtga taklif qilishgan ekan. Gazeta o'z vaqtida yetib kelganida edi, men ham Toshkentga borgan bo'lardim. U yerda tanlov g'oliblari bilan do'stlashardim.

Gazetalarni o'z obunachilariga yetkazib beruvchi muhtaram amaki va xolalar, sizlardan iltimos, Respublikada yagona bo'lgan gazetamizni o'z vaqtida olib keling. Ayniqsa, hozirgi ta'til kunlarida biz uning har bir sonini intiq kutaymiz.

Mufazzaloy ABDULLAYEVA,
Andijon viloyati, Andijon
tumanidagi Zavroq qishlog'i,
3- umumta'lim maktabining
9- «V» sinf o'quvchisi.

MENDA BIR TAKLIF BOR


«Tong yulduzi» mening eng sevimli nashrim. Fursatdan foydalanib, tahririyat xodimlarini «27 iyun - matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni» bayrami bilan qutlayman. Ularning zahmatkash ishlariga rivoj tilayman.

Men «Tong yulduzi»ning rang-barang sahifalarini miriqib o'qiyman, boshqotirmalarini yechaman. Bir so'z bilan aytganda bo'sh vaqtimni gazeta bilan birga maroqli o'tkazaman.

Hozir ayni ta'til kunlari. Biz bolajonlarning bo'sh vaqtimiz serob. Istardimki, gazetamiz mavzusi yanada kengaysa. Krossvord boshqotirmalar ko'proq e'lon qilinsa. Shuningdek, yoshlarning huquq va burchlarini anglatuvchi mutaxassislar bilan suhbatlar uyushtirilsa. Yana, o'quvchini bahsga chorlovchi maqolalar, jahon adabiyoti durdonalaridan ham tarjimalar berib borilsa, ayni muddao bo'lardi. Sevimli xonandalarimiz hayoti va ijodiga oid hikoyalarni ham maroq bilan o'qirdik...

Bular mening takliflarim. Sizda-chi, aziz tengdoshlarim, qanday takliflar bor? Yozib yuboring, axir bu bizning gazetamiz-ku!

Ravshanbek
NAQSHVANOV,
Qashqadaryo viloyati,
Mirishkortumanidagi
12 - o'rta maktabning
6 - sinf o'quvchisi.



Quyi sinflarda o'qib yurganimizda biz uchun qadrdon

bo'lib qolgan maktabimiz oromgohi

ayni kunlarda

ONALARNING KO'NGLI XOTIRJAM



kichkintoy uka va

singillarimizning ham eng sevimli maskaniga

aylangan. Avvallari oromgohimizda bir necha arg'imchoqlargina

boredi, xolos. Hozirgi

kunda esa

bolajonlarning

ko'ngilli, maroqli

hordiq chiqarishlari

uchun barcha

sharoitlar muhayyo

qilingan. «Mohir

qo'llar», shaxmat-

shashka, raqs, ayniqsa,

sport to'garaklari

bolajonlar bilan

gavjum. «Sog'

tanda, sog'lom

aql» shiori ostida

o'tkazilayotgan

s p o r t

bellashuvlarida

ishtirok etmagan


birorta bolakay

q o l m a y d i .

«Kamolot»

yoshlar ijtimoiy

harakati va



«Kamalak» tashkilotlari birgalikda kichkintoylar orasida targ'ibot ishlarini olib borishadi, mazkur tashkilotlarning maqsad va vazifalarini qiziqarli o'yinlar asosida tushuntirishga intilishadi.

Bu xayrli ishlarining bariga bosh-qosh bo'lib kelayotgan maktabimiz rahbari Xadicha opa Ubaydullayevaning sa'y-harakatlari bois maktabimiz ham, oromgohimiz ham tumandagi eng namunali maskanlardan biriga aylangan.

Eng muhimi - farzandlari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rgan, ovqatlarining sifatini tatigan, ularning sho'x-shodon bellashuvlaridan zavqlangan onalarning ko'ngli xotirjam. Demak, ularning ishlarida ham unum, baraka bo'ladi.

Malohat TO'XTAYEVA,

Go'zal QOSIMJONOVA,

Toshkentdagi 116 - maktabning

9 - «B» sinf o'quvchilari.

Suratlarda:

Bolajonlarning oromgohdagi har bir kunlari ana shunday maroqli o'tadi.

Qiziq, qayerga bormay, ko'cha-
k u y d a m i ,
transportdami,



shifoxonadami, kattalarning
bir xildagi gaplari qulog'imga
chalinadi. Tinimsiz

yog'ayotgan yomg'irdan shikoyat
qilishadi: «Bu yil bahor juda
seryog'in keldi-da. Yomg'irlar ham
ezib yubordi odamni. Mevali
daraxtlarga ziyon bo'ldi», deya tabiat
hodisalaridan nolishadi. Ularning
gaplarini eshitib o'yg'a tolaman.
Keyingi paytlarda ko'plab sodir bo'layotgan
suv toshqinlariga, zilzilalarga, iqlimning
keskin o'zgarishiga, ozon pardasining
yemirilishiga, inson hayoti uchun
xavfli bo'lgan noma'lum viruslarning
tarqalishiga, Orol dengizining qurishiga,
20 yildan so'ng ichimlik suvining
nihoyatda kamayib ketishiga tabiat
emas, aslida insonlarning o'zlari
sababchi emasmikinlar?!

Bir kuni yog'ayotgan yomg'irni tomosha
qilib o'tirib,

TABIATGA XIYONAT - O'ZIMIZGA QIYOMAT

Onajonim tabiat

har tarafga shunaqangi tarqaldiki,
o'tib ketishga yo'l ham qolmadi.
Qanchadan-qancha pashsha-yu chivinlar,
turli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi
viruslarning tarqalishiga sabab bo'lmaydimi
bu?!

Yaqinda «O'talar choyxonasi» yonidan
o'tib ketayotib, jo'mrakdan sharillab oqib
yotgan suvga ko'zim tushdi. Yugurib borib,
o'chirib qo'yay desam, jo'mragi yo'q

xunuk bir
manzaraning
g u v o h i

bo'ldim: Muyulishga
tashlab ketilgan kattakon
axlat uyumi yomg'ir selida

ekan. Nahotki, shunday maskanda bu
holga hech kim e'tibor bermasa? Axir
nuroniy otaxonlarimiz nafaqat
tarbiyada, balki hamma borada:
isrofchilikka yo'l qo'ymaslik,
tejamkorlikda ham bizlarga o'rnak
bo'lishlari lozim-ku axir.

Yonib ketgan o'rmonni, o'simliklarni
qayta ekib, o'rni to'ldirish mumkindir.
Lekin yo'qolib ketayotgan hayvonlarning
asl turlarini, kamayib borayotgan
ichimlik suvini, ifloslanayotgan musaffo
havomizning o'rni to'ldirib bo'larmikin?

Shunday ekan, tabiatni asrab, uning
boyliklaridan oqilona foydalanaylik.
Uni onalarimizga qiyos qilib, onajonim
tabiat, deya ardoqlaymiz. Ardog'imiz
so'zdagina emas, amalda bo'lsin. Zero,
bugun tabiatga xiyonat qilsak, ertaga
o'zimizga qiyomat bo'lib qaytishi
tayin.

Ziyoda MIRZAJONOVA,

Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
254 - maktabning 3 - «V» sinf o'quvchisi.

26 iyun - butunjahon giyohvandlikka qarshi kurash kuni

OG'UDAN SAQLANING

Hozirgi kunda ayrim yoshlarimiz
giyohvandlikka ruju qo'yishgani sir
emas. Aytishlaricha, giyohvand
moddalar asosan Afg'oniston va
Tojikiston Respublikalaridan kirib
kelarkan. Hozir Respublikamizda ham
ushbu kasallikni davolaydigan tashxis
klinikalar mavjud. Lekin eng asosiysi
insonning o'zida ham xohish bo'lishi
kerak. Ayrim ota-onalarimiz o'z
bolalariga be'tibor bo'lmasdan,
ularni sport bilan yoki farzandlari
sevgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlariga
yo'l ochib berishlari lozim. Inson
giyohvand moddalar iste'mol qilishi
oqibatida bir qancha kasalliklarni
orttirib oladi. Bu - yurak, o'sma,
OITS va jigar hastaliklaridir. Ushbu
og'uning iste'mol qilgan ota-onalardan
esa har xil tug'ma nuqsonli bolalar
dunyoga keladi. Shuning uchun biz
bunday qabih illatlardan ko'ra sport
bilan shug'ullansak doimo sog'lom bo'lamiz.

Dilshod IMOMOV,

Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
316 - tayanch maktabining 7- «V» sinf o'quvchisi.



TALABCHAN USTOZ

Sherzod aka Mamajonov mana 4 yildirki,
36 nafar o'g'il-qizga sportning Taekvando turi bo'yicha
ustozlik qilib kelmoqda. Undan bolalar ham,
ularning ota-onalari ham mamnun bo'lishyapti.

Taekvando mening hayotimga aylanib bormoqda.
Feruza, Aziz, Mehri, Shohsanam kabi o'rtoqlarim
bilan haftada uch marta qatnashamiz. Ustozim
ozodagarchilikka ham alohida e'tibor beradilar.
Mashg'ulot paytida oyoq-qo'llarimiz toza,
tirnoqlarimiz olingan, kiyimlarimiz ozoda bo'lishi
shart. Yaqinda Taekvando klubi ta'mirlanib,
foydalanishga topshirildi. Bu klubda Taekvando
sport turi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib
berilgan. Sherzod aka o'z kasbiga mehr bilan
yondoshadigan inson. Tez-tez o'tkazib turiladigan
musobaqalarga ham bosh-qosh. Yaqinda
«Barkamol avlodmiz» deb nomlangan musobaqa
bo'lib o'tdi. Musobaqada bizning «Sher» jamoamiz
faxrli o'rinnlarni egallab qaytishdi. Erishgan
muvaffaqiyatimizda ustozimiz Sherzod akaning
hissasi katta. Hozirgi kunda ta'til bo'lgani
sababli bolalar soni kundan-kunga ko'payib
bormoqda. «Taekvando - urishish, mushtlashish
uchun emas, balki o'zini-o'zi himoya qilishdir»,
deb ta'kidlaydilar ustoz. Hozirgi kunda sport
bo'yicha turli xil sayohatlarni rejalashtirmoqdamiz.
Maqsadimiz vatanimiz sharafini dunyo
miqyosida himoya qilishdir.

Dilshoda ABDULLAYEVA,

Farg'ona viloyati, Yaypan shahridagi
22-o'rta maktabning 6- «E» sinf o'quvchisi.

Sayohat - tanga rohat

SAMARQAND - SHARQ MASH'ALI

deb bejiz aytilmagan ekan. Bu qiyosning
nechoq'li to'g'riligiga yaqinda ko'hna va
navqiron Samarqandga qilgan sayohatimiz
davomida yana bir bor amin bo'ldim. Bu
shahar men tasavvur qilgandan ham go'zalroq.
«Osmon ostidagi ochiq muzey» deganlaricha
bor ekan. U erdagi yodgorliklarni ziyorat
qildim, muzeyni tomosha qilib, yangi-yangi
ma'lumotlar to'pladim. Registon maydonidagi
madrasa va maqbaralarning chiroyi va
salobatidan aqlim shoshdi. Mirzo Ulug'bek,
Tilla Qori hamda Sherdor madrasalarining
jilosiga hayrat bilan boqar ekanman,
qalbmida shu ajib diyorning farzandi,
buyuk zotlar ajdodi ekanligimdan faxr va
iftihor tuyg'ulari jo'sh urdi.

Sayohatdan bir olam zavqu shavq,
taassurotlar bilan qaytdim. Shunda bobomning:
«Ziyorat qilmoqlik - dunyodagi eng katta
savob ishlardan biri» degan fikrlarida bir
olam ma'no borligiga amin bo'ldim.

Nigora BONU,

Arab tiliga ixtisoslashgan
29 - maktab o'quvchisi.



«Ona vatanimizning munosib vorislari bo'lish
uchun faqat a'lo baholarga o'qishni istaymiz!»
Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
317-maktabning 5- «V» sinf o'quvchilari
shiori ana shunday. Jajji bolajonlar hamma
fanlarni birdek sevizib o'qishadi. Oxirgi qo'ng'iroq
kuni a'lochi o'quvchilar «Maqto'v yorliqlari»
bilan taqdirlanishdi. A'lo o'qishning siri
avvalo tinimsiz mehnat va izlanishda.
Ushbu sinf o'quvchilari buning uddasidan
chiqishdi. Qalblarida bir olam hayajon bilan
saf tortib turgan bu o'quvchilar o'z minnatdorchiliklarini



ustozlariga she'rlar va qo'shiqlar orqali
bayon qilishdi.

Istaklari- yozgi ta'tilni shodu hurram
o'tkazib, yangi kuch bilan yana maktab
bag'riga qaytish.

M.TURSUNOVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
317-maktabning 5- «V» sinf o'quvchisi.



Maktab o'quvchilarining orziqib kutgan yozgi ta'tillarining bir oyi ham ortda qoldi.

pedagogik jamoasi, tuman hokimiyati, tuman xalq maorifi bo'limi, ota-onalar

ko'ngilli dam olishlari uchun barcha shart-sharoitni yaratishga harakat qildilar.

tadbirlarni boshlab yubordilar. Oromgohdagi to'rtta guruhda 100

"QALDIRG'OCH" QALDIRG'OCH, ESHIGINGNI KENGROQ OCH!

Bu davrda kimdir xushmanzara tog' bag'irlarida, kimdir qishloqdagi buvijonisinikida, yana kimdir uyida dam olishni xohlaydi. Bolalar qayerda dam

kengashi qarori bilan maktab qoshida bolalar oromgohi tashkil etdi, - deydi Sobir Rahimov tumanidagi 249- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Mukarram KARIMOVA.



olishmasin, bo'sh vaqtlari ko'ngildagidek, mazmunli va maroqli o'tsa bas.

- Bizning Sobir Rahimov tumanidagi Obid Sodiqov nomli 249- maktab

oilalarning farzandlari jalb qilindi. Maktab jamoasi oromgohdagi bolalarni

Oromgohga asosan kam ta'minlangan oila farzandlari, shuningdek, ko'p bolali

Oromgohdagi kutubxona, fan, «Suzish», «Futbol», «Stol tennisi», «Raqs», «Oo'shiq» to'garaklari bolajonlar bilan gavjum.

«Qaldirg'och» oromgohidagi ustoz tarbiyachilar har bir kunni o'ta mazmunli o'tishi uchun qiziqarli tadbirlar rejasini tuzdilar. Jumladan, «Mening oromgohim», «Keling, do'stlashaylik», «Iste'dodlar ko'rigi», «Ertak qahramonlari bilan uchrashuv»

k a b i

Bolakay, ta'til qanday o'tmoqda?

nafardan bola bor.

Oromgoh yonidan o'tgan kishi sho'x va quvnoq jaranglayotgan qo'shiqlarni eshitib, beg'ubor bolalikka havas qilib, ko'z tegmasin, deydi.

Ana, «Qaldirg'och»ning quvnoq qo'shig'i yangrayapti, bolajonlar shodon kayfiyatda maydon bo'ylab odimlamodalar.

Iskandar ODILOV yozib oldi.

- Men har yili «Gulbahor» bolalar oromgohida dam olaman. Menga oromgoh juda ham yoqadi. Bu yerda bolalar uchun barcha sharoitlar muhayyo, - deydi poytaxtdagi Ikromov nomli 185- maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi Muattar To'xtayeva.

Q a t o r

DO'STLAR YANA UCHRASHDIK

«Shaxmat

shashka», «Mohir qo'llar»

«Musika va raqs» kabi to'garaklar bolalar xizmatida, ko'plab sport to'garaklarida bolalar gavjum.

Men oromgohda dugonalarim-Dilfuza, Nigoralar bilan yana uchrashdim. Ular bilan birgalikda bo'sh vaqtlarimizni kutubxonada o'tkazyapmiz. Uyerdagi eng qiziqarli kitoblarni kim tez o'qib chiqishga kirishganmiz.

Shuningdek, yaxshi suzishni ham shu oromgohda o'rgandik. Sport musobaqalarida ham barchamiz faol ishtirok etayapmiz.

Xullas, yozgi ta'til men va dugonalarim uchun juda maroqli o'tayapti. Sizda-chi, aziz tengdoshla, yozgi ta'til ko'ngildagidekmi?



SAN'ATSEVAR BOLALAR MAKTABI yoki yangi binoning egasi chiqdi.

Chinoz tumanidagi P.I.Chaykovskiy nomli 14- bolalar san'at maktabining tashkil etilganiga ham qirq yildan oshdi. Bu davr mobaynida san'at maktabi bir qator el sevgan san'atkorlarni yetkazib berdi.

Ayni kunlarda maktabda 265 nafar bola turli yo'nalish bo'yicha ta'lim olmoqda. Jumladan, fortepiano, bayan- akkordeon, spripka, rubob, doira, dutor, nay mutaxassisliklaridan saboq olmoqdalar.

Bundan tashqari, tasviriy san'at, xoreografiya, an'anaviy qo'shiqchilik bo'limlari ham bolajonlar xizmatida. Kelgusida esa teatr bo'limini ochish ham

rejalashtirilgan.

Maktabda 27 nafar malakali ustozlar san'atsevar bolalarga ta'lim berib kelmoqdalar.

- Moddiy bazamiz yaxshi. Barcha musiqa asboblari sifatli. Ayniqsa, o'zbek xalq cholg'u asboblari xalq ustalari yasagan, - deydi san'at maktabining rahbari Aziza opa Polvonova.

O'quvchilarimiz juda qobiliyatli, san'at shaydolari. Ular ko'plab



tanlovlarda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritganlar.

Respublika miqyosida o'tkaziladigan Muxtor Ashrafiy nomli va Muhiddin Qori-Yoqubov nomli tanlovlarning doimiy qatnashchisi.


O'quvchilarimizdan Vohidjon Naimov doira mutaxassisligi bo'yicha Muhiddin Qori-Yoqubov nomli tanlovda birinchi o'rinni egalladi.

Toshkent viloyati bo'yicha o'tkazilgan qo'shiq bayramida esa o'quvchilarimizdan Alixon Bakirov, Soy Yelizaveta faxrli o'ringa sazovor bo'ldi.

Biroq, san'at maktabimizdagi ish sharoiti yaxshi emas. Binomiz 1934 yilda qurilgan. Bugungi kunga kelib ayanchli holatida. Vaholanki madaniyat saroyi va san'at maktabi uchun qurilayotgan va yetmish foizi bitay deb qolgan yangi binoni xokimiyat tomonidan boshqa tashqilotlarga berib yuborildi.

Maktabning yaqin kelajakdagi rejalarining asosiylaridan biri o'zining loyiha asosida qurilgan binosiga ega bo'lish. Shuningdek, teatr bo'limini ochish va albatta o'sib kelayotgan yoshlarni ko'proq san'at olamiga jalb etishdir.

A.ABDULLAJONOV.



SINOY KUNLARI

Maktab sahnasi uchun

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Ortiq:

-Do'stning kamchiligini orqasidan so'zlab yurish g'iybat deyiladi.

O'tkir:

-Do'stda yo'q kamchilikni gapirish g'iybat...

Ortiq:

-Yo'q, unisi bo'hton. Kattaroq gunoh. Agar g'iybat qilsang, do'stning go'shtini xomligicha yegan bo'lasan. Bo'hton yo tuhmat gap aysang, katta gunohga botasan. Unisi kechirilishi qiyinroq...

O'tkir:

-Hey.. Sen bularning hammasini qayoqdan bilasan?

Ortiq:

-Aytayapman-ku, kitobda yozilgan bular.

O'tkir:

-Qaysi kitobda? Sir bo'lmasa aytvor...

Ortiq: (pichirlab)

-Qur'onda...

Qodir:

-Ha, yaxshi, yaxshi. Boshqa gaplardan gaplashaylik. I-ye, soat ikkidandan oshib ketibdi-ku... Oqboladan darak yo'q.

Ortiq:

-Ha, kelib qolar. Hovliqma. Endi besh daqiqa oshibdi ikkidandan. Hali Muzaffar Burro ham yo'q.

O'tkir:

-Kelishadi, hozir kelishadi. Shiringina gaplashib o'tiribmiz-ku...

Ortiq:

-Shuni ayt. Qodir o'zi shunaqa. Birov sal kechiksa, joniga o't tushadi.

Qodir:

-Odam degan va'da qilganidan keyin vaqtida kelishi kerak-da.

O'tkir:

-Ha, yaxshi, yaxshi. Buni unuta turaylik. Gapning beliga tepma. Qodir... Mening Ortiqqa savolim bor. Menga qara, betamiz, sen qachon qarasa, maktabdagi bayramda ham, uchrashuvlarda ham, to'ylerde ham doim Otello bo'lasan... Baqirib-chaqirib monolog o'qiysan...

Shu o'zingga yoqadimi? Artist bo'lmoqchimisani? Shu nonxo'r qorning bilan...

Ortiq:

-Nima qipti, Otello desa degundayman. Mana, sen uchuvchi bo'lmoqchisan... Men senga: «Nega uchuvchi bo'lasan. Osmonda nima bor?» - demayapman-ku! Shuniyam bilgani bordir, deyman.

O'tkir:

-Hoy, menga qara, betamiz, uchuvchilik qayda-yu artistlik qayda? Cheksizliklar ichiga o'qday vang'illab kirib ketasan. Sen O'zbek Milliy teatriga yetguningcha, men Samarqandga yetaman, buning farqiga bormaysanmi?

Ortiq:

-Sen Samarqandda o'ralashib yurganingda, men Angliya, Venetsiyada bo'laman. Otello bo'lib Qibris orolida jang qilayotgan bo'laman.

O'tkir:

-Bo'pti, senikiyam, menikiyam zo'r...

Ortiq:

-Sen O'zbek Milliy teatriga borganmisan? Abror Hidoyatov sahnaga chiqqanini ko'rganmisan? Menga qara, mana bunday, zalga orqasini o'girib turganda sahna yorishganini ko'rsayding... Tomoshabinlar qotib qoladi. Pashsha uchsa ham g'ashing keladi. Hamma nafasini yutib o'tiradi. Abror akaning har bir qimirlashi bir ma'noli.

O'tkir:

-Yaxshi, yaxshi. Bir Otello monologini o'qib ber. Eshitaylik.

Ortiq:

-Qanaqa bo'larkin... Ha, mayli, eshitinglar...

Men qoramanmi?

Men qop-qoramanmi?

Men bir to'da oliftalar singari tekis, silliq qilib so'ylayolmaymanmi?

...Uh, men sevgan buyumning bir bo'lagini,

Boshqa biror kishi bilan baham ko'rguncha,

Koshki edi cho'lqurbaqa bo'lib tug'ilsam,

Xo'rlik bilan yer tubida, kavakda o'lsam.

...Bu rutubatli kishilarning ochgan yarasi

Tubanlarning yarasidan yana alamli.

Tahqir degan o'limday haq. Biz tug'ilarkan

Peshonaga shunday xo'rlik yozilgan ekan.

Oldimizga poxol solish, barisi taqdir.

Davruga Muzaffar Burro kelib qo'shiladi. U monologga xalaqit bermayin deb jimgina bir chetga borib o'tiradi. Ortiq monologini to'xtatadi.

Qodir:

-Mana Muzaffar ham va'dasidan o'n daqiqa kechikib keldi.

Muzaffar Burro:

-Men tushlikdan keyin mudrab qolibman.

Ortiq:

-Hech zarari yo'q. Qalay, O'tkir, o'qigan monologim yoqdimi?

O'tkir:

-Zo'r, zo'r. Gap yo'q o'qishingga.

Ortiq:

-Sen bu aytilgan so'zlarga e'tibor ber:

Men qop-qoramanmi?

Men bir to'da oliftalar singari tekis,

Silliq qilib so'ylayolmaymanmi?

Men bu so'zlarni aytayotganimda xalqimizni nazarda tutaman. «Biz qora xalqmizmi?»

Miraziz A'ZAM

demoqchi bo'laman. «**Bir to'da oliftalar**» deganda kimlarni nazarda tutaman, bilasanmi? Bizlarni «madaniyatsiz», «sizlarga biz madaniyat olib keldik» deguvchilarni nazarda tutaman. Axir tahqirlangan, oldiga poxol solingan, aldangan Otello biz emasmizmi? Tushunasanmi?

O'tkir:

-Qo'ysang-chi, bo'ldi endi. Maqsading odamni yig'latishmi?

Muzaffar Burro:

-Otelloda menga ta'sir qilgan joyi, o'zi qora bo'laturib oq qizni sevishi...

O'tkir:

-Bu tushunarli... Lekin senga nima?

Muzaffar Burro:

-Mengami? Mengayam daxli bor. Men ham qorachaman.. O'sha Dezdemonaga o'xshagan oppoq bir qizni yaxshi ko'raman. Bilasanmi kimni, ingliz tili o'qituvchimiz Osiyo opani...

O'tkir:

-Gapni qara, gapni qara... Hoy, sen nima deyapsan, betamiz?! Osiyo opa sendan kamida o'n yosh katta, eriyam bo'lsa kerak...

Muzaffar Burro:

-Nima qilay axir?! Odam degan ham shunchalik oppoq, muloyim bo'ladimi? Bitta men emas, hammang yaxshi ko'rsan uni! Ichingda...

O'tkir:

-Bu gapingda, lekigin, jon bor... Menam yaxshi ko'raman. Meniki faqat hurmat.

Kichkina:

-Menam yaxshi ko'raman. Menikiyam faqat hurmat.

Qodir:

-O'ziyam bir farishtadek-da... Yaxshi ko'rmaslikning hech iloji yo'q!

Ortiq:

-Hammangiz gunohkor bandalarsiz.

Muzaffar Burro:

-Hey, Ortiq, o'zing bir xolislik bilan ayt, uning kulishlari to'lgan oyga o'xshamaydimi?

Eslaysanmi, umrida bir baqirganmi?

Ortiq:

-Yaxshiligiga gap yo'q.

Kichkina:

-Sirayam qattiq gapirmagan...

O'tkir:

-Hammaga «besh» qo'yadi. Eng past bahosi «to'rt».

Qodir:

-To'g'risini aytganda, shu hammaga «besh» qo'ygani yaxshi emas. Bittamiz ham ingliz tilini tuzukroq bilmaymiz. «Aylav yu» dan boshqa nimani yod bilamiz?

Muzaffar Burro:

-«Gudmoning, children»ni, «Gudbay» ni bilamiz. Hech kimning ko'nglini og'ritgisi kelmaydi... Yaxshiligi uchun... Xo'sh, nima qilsin?

Qodir:


-Ko'nglining yumshoqligi yaxshi, Ammo bilimsiz odamga «besh» qo'yaverish unchalik to'g'ri emas!

(Davomi bor).



BALANDROO UCH, SAMONI UCH, MODELIM!



Odatda yoz kunlari soya-salqin oromgohlari saylgohlar bolajonlar bilan gavjum bo'lishiga ko'nikib qolganmiz. Yaqinda poytaxtimizdagi «Bobur» nomli madaniyat va istirohat bog'i har kungidan ham gavjumroq bo'ldi. Sababi, 18-20 iyun kunlari mazkur maskanda «Avtomodel» kordli» Respublika birinchiligi musobaqalari bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi «Kamalak» bolalar tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» markaziy kengashi hamda Respublika o'quvchilar texnik ijodiyot markazi hamkorligida Respublikada bolalar sportini yanada rivojlantirish, o'quvchilarda jismoniy va ma'naviy tarbiyani shakllantirish, qolaversa, iste'dodli yoshlarni aniqlab, ularni rag'batlantirib borish maqsadida tashkil qilingan ushbu tadbir juda maroqli o'tdi. Uni nafaqat bolalar, balki ularning ota-onalari ham zo'r qiziqish bilan tomosha qilishdi. Bellashuvda deyarli barcha viloyatlardan, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent shahridan viloyat va shahar bosqichlarida g'olib deb topilgan 6 o'quvchi, 1 rahbar va 1 hay'at a'zosi iborat bo'lgan guruhlar faol ishtirok etdilar. Musobaqalarda bolalar o'z qo'llari bilan yasagan G'-2-A tezkor modellari, G'-2-V Pilotaj modellari, G'-2-D Havo jangi bo'yicha modellar, G'-4-V Samolyot nusxasi modeli, G'-4-V Yarim nusxa modellari bilan qatnashdilar.



-Bugungi va bu kabi ko'plab tadbirlarimizni o'tkazishdan
ydi Respublika o'quvchilar texnik ijodiyot markazi tashkiliy
icha direktor muovini Feruza RASULOVA, - bolalar sportini
h, ulardagi konstruktorlik, ixtirochilik qobiliyatlarini
rsa, yozgi ta'til kunlarini maroqli, unumli o'tkazishlariga
imizda Samarqand, Buxoro, Jizzax, Farg'ona viloyatlari
ri vakillarining muntazam qatnashib kelishlari barchamizni
Lekin bugungi tadbirimizda

Sirdaryo

irok eta olmaganliklari biroz
ak, viloyatda bu yo'nalishdagi
il bolalar orasida sportning bu
chilar juda ko'plab topiladi.
ilar texnik ijodiyot markazlarida ham shu yo'nalishdagi
insa, ularga qatnashishni xohlovchi yosh aviomodelchilar



Nihoyat, tanlov yakunlanib, hayajonli daqiqalar yetib keldi. Nomlari birma-bir sanab o'tilgan g'oliblar gulduros qarsaklar ostida o'z sovrinlarini olishdi. G'-2-A Tezkor modellari bo'yicha Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 20 - maktabning 10 - sinf o'quvchisi Damir Tagirov, G'-2-V Pilotaj modeli bo'yicha Samarqand shahridagi 17 - maktabning 10 - sinf o'quvchisi Georgiy Grigoryev, G'-4-V nusxali modeli bo'yicha Samarqand shahridagi 50 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi Nikita Tyunov, G'-4-V yarim nusxali modellar bo'yicha Toshkent viloyati, Olmaliq shahridagi 14 - maktabning 9-sinf o'quvchisi Stanislav Smirnov hamda G'-2-D Havo jangi modeli bo'yicha Toshkent shahar Temiryo'l kolleji o'quvchisi Yevgeniy Belotserkovlar g'oliblikni qo'lgakiritishdi.

Jamoa bo'yicha 1-o'rin Samarqand viloyati, 2-o'rin Farg'ona hamda 3 - o'rin Toshkent shahri vakillariga nasib etdi. G'oliblar Xalq Ta'limi vazirligining «Faxriy Yorliq»lari va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan qatnashchilarga Respublika «Kamalak» bolalar tashkilotining «Faxriy yorliq»lari, Respublika mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti Markaziy kengashi tomonidan ajratilgan pul mukofotlari ham topshirildi.

Istagimiz - bunday tadbirlar ko'plab bo'lib tursin, musaffo, osuda osmonimiz tinchini faqat bolajonlar ixtiro qilgan aviomodellar shovqini buzsiz.





Gulnoraxon qizimiz bolalikdan she'riyat qalbda she'riyatga bo'lgan havas biz katta Ona Vatan, yurtboshiga dil izhorlari, yurt Uning go'zal she'rlari tuman va viloyat Gulnoraxonga she'riyatning ulkan um

Andijon viloyati.

MEHR

Mehr so'zi qandayin
Bebahoki shundayin.
Garchi bir oz unutsang,
Dilning og'rishi tayin.
Mehrribon bo'l elingga,
Seni boqqan yurtingga.
Ezgu his-la dilingda,
Yaxshilik qil nochorga.
Mehrğa zor qanchalar,
Onalar, mitti jonlar,
Unutma ertamiz albat,
Qora ko'z bolajonlar.



Feruzə JALILOVA.

Aziz tengdoshlarim, siz o'z mahallangiz tarixini yaxshi bilasizmi? Unchalik emas, deysizmi, yaxshi emas! Menimcha, har birimiz o'zimiz tug'ilib o'sgan, yashayotgan mahallamiz tarixini yaxshi bilishimiz lozim. Axir yurtimiz tarixi biz uchun mitti vatan bo'lmish mahallalar tarixidan mujassam bo'ladi-ku.



S h u *Obod mahallam mening*
maqsadda
men ham Yusuf Sakkokiy nomli mahallamiz tarixini
o'rganishga astoydil bel bog'ladim. Nuroniy otaxonu
onaxonlarimizdan so'rab-surishtirdim, kutubxonaga
borib, kitoblar varaqladim: Natija esa yomon emas,
mahallamiz haqida ancha-muncha ma'lumotlarga ega
bo'ldim.

Afsuski, atoqli lirik shoirimiz Sakkokiy haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan ekan.

S a k k o k i y

atqoli lirik shoirimiz Sakkokiy haqida juda kam
saqlanib qolgan ekan.

k i y

MAHALLAMIZGA BIR KELING

movarounnahrlikdir.

U

Temuriylarning poytaxt shaharlaridan bo'lmish Samarqandda yashab, ijod etgan. Sakkokiyo shoirlarning taxallusi bo'lib, uning asli nomi ma'lum emas. Taxallusining mazmuni «sakkok» (pichoqchi) so'zidan olingan bo'lib, shunga ko'ra shoirlar pichoqchilar oilasida XVI asrning ikkinchi yarmi yoki oxirida tavallud topgan, deya taxmin qilinadi.

Mahallamizda juda ko‘plab zahmatkash, fidoiy insonlar yashashgan ekan. Ayniqsa, bobodehqon Mir Boboning hayotlari hammamizga o‘rnak. Bobo qurdirgan masjid mana yuz yildirki, mahallamiz ko‘rkiga ko‘rk bo‘lib turibdi. 1987 yilda tashkil topgan mahallamizga Jo‘rabek Alimov, Sodiqjon Jakubov, Bahodir Ibragimov kabi zahmatkash insonlar oqsoqollik qilib, uning gullab-yashnashi uchun o‘z hissalarini qo‘shib kelishgan.

Aziz do'stlarim, siz ham mahallamizga bir keling. Bahri-dilingiz ochilib ketadi. Ko'chalarimiz orasta, hovlilarimiz sarishta. Maktab va bog'chalar, oziq-ovqat rastalari, qo'yingchi, har bir xonadonning oldida gulzor, chamanzor. Bu ishlarning bariga hozirgi kunda mahallamizga oqsoqollik qilib kelayotgan Abdusamad aka Abdumalikov bosh-qoshlar. Mahallamiz bolalarining odobini aytmaysizmi? Kattalar o'tib qolishsa, qo'lini ko'ksiga qo'yib salom berishadi. Og'irroq yuklari bo'lsa, uylarigacha ko'tarishib borishadi. Kichkintoylarni hecham xafa qilishmaydi. «Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona» deganlaridek, mahallamizning keksalari bizning eng yaqin maslahatgo'yimiz. Shunday so'lim va obod mahallaning farzandi ekanligimdan faxrlanaman.

Munisa HUSNIDDINOVA,

Poytaxtdagi Turob To'la nomli 14 - o'rta maktabning

2 - «A» sinf o'quvchisi.

Tengdoshlaringiz ijodi

Gulnoraxon qizimiz bolalikdan she'riyatga qiziqib keladi va bu yo'lda juda ko'p izlanib she'rlar yozmoqda. Bu murg'ak qallda she'riyatga bo'lgan havas biz kattalarni ham o'ziga jalb qildi. Yozgan she'rlarini o'qib, to'lg'inlanib ketasan go'yo, Ona Vatan, yurtboshiga dil izhorlari, yurt go'zalligini tarannum etuvchi she'rlari har bir o'quvchini befarq qoldirmaydi. Uning go'zal she'rlari tuman va viloyat ro'znomalarida chop etilgan.



Gulnoraxonga she'riyatning ulkan ummonida tinmay izlanib, parvoz etishini chin dildan istab qolaman!

Odinaxon SODIOOVA.

Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 25 - maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

MEHR

Mehr so'zi qandayin
Bebahoki shundayin.
Garchi bir oz unutsang,
Dilning og'rishi tayin.
Mehribon bo'l elingga,
Seni boqqan yurtingga.
Ezgu his-la dilingda,
Yaxshilik qil nochorga.
Mehrga zor qanchalar,
Onalar, mitti jonlar,
Unutma ertamiz albat,
Qora ko'z bolajonlar.



ONAJONIM

Mening onam hamshira,
So'zlari boldan shira.
Har kungi qilar ishi,
Chaqaloq parvarishi.
Oq xalatli oq ko'ngil,
Onajonim bor bo'lsin,
Har qanday ishingizda,
Zafar sizga yor bo'lsin!



Uyimiz farishtasi,
Poyingiz gulga to'lsin,
Shirmoy- shirmoy non yopgan,
Mehribonim bor bo'lsin.
Tunlari uxlamasdan,
Alla aytgan onajon,
Baxtimizga doimo,
Omon bo'ling har qachon!



Gulnora HALILOVA,
Andijon viloyati, Xo'jaobod
tumanidagi 25- maktabning
7-sinf o'quvchisi.



Muxbir safardan qaytdi

Bolalikning beg'ubor osmoni hamisha quyosh nurlari bilan charog'on, zamini gul-chechaklar bilan burkangan, tunlari esa to'lin oy kabi osuda.

Kuni kecha Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidagi «Bo'ston» iqtidorli bolalar litsey-internati»da ham ana shu beg'ubor qalblarni o'z bag'riga olgan ta'lim maskanining tashkil etilganligini bir yilligi keng nishonlandi.

Kechaning Xalqaro Bolalarni Himoya qilish bayrami kunlariga to'g'ri kelganligi esa ayni muddao bo'ldi. Chunki tinchlikni, hurlikni, baxtu iqbolni baralla tarannum etayotgan qaynoq yuraklar bayram shukuhidan mamnun edilar.

«Bo'ston iqtidorli bolalar litsey-internati» bu tadbirga maqtasa arzigudek tayyorgarlik ko'rishgan. Hammayoq chinniday ozoda, atrofdagi rang-barang gullar, ayniqsa, o'quvchilarning yuksak did bilan kiyinganligi kishi e'tiborini o'ziga jalb etadi.

- «Xush kelibsizlar, qani ichkariga marhabo! Kechamizga «Tong yulduzi» gazetasining xodimlari ham tashrif buyurar ekan, degan xushxabardan o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham quvonib ketishdi. Ularning sizlar bilan suhbatlashish uchun bir dunyo gaplari, ajoyib yutuqlari bor», dedi litsey direktori Baxtiyor aka Erdo'nov.

Tadbir o'tkazilayotgan zal mehmonlar,

o'qituvchi va o'quvchilar bilan limmo-lim to'lgan. Zukko, bilimdon, iqtidorli

tuman miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda, rasm chizish tanlovlarida, turli sport bellashuvlarida muvaffaqiyatli qatnashib

mustahkamlaydi.

Ha, aziz bolajonlar, sizning birinchi qaldirg'och tengdoshlaringiz ta'lim olayotgan «Bo'ston iqtidorli bolalar litsey-internati» o'qituvchi va o'quvchilari bilan xayrlashar ekanmiz, ularning kelgusidagi ishlariga ulkan zafarlar tiladik.

Nodira MIRZAEVA.

UCHRASHUVGA MAHTAL KO'NGILLAR



o'quvchilarning rang-barang kuy-qo'shiqlari, raqslari, turli xil sahna ko'rinishlari, ayniqsa, litseyning «Nastarin» guruhi chiqishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Kechada shoira Umida Abduazimova so'zga chiqib, o'quvchilarni bugungi shodiyona

bilan qizg'in qutladi. O'quvchilarning talablariga ko'ra o'zlarining hayot yo'llari hamda ijodi haqida gapirib, yangi she'rlaridan o'qib berdilar.

Kecha so'ngida bu ta'lim maskanida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Baxtiyor akani suhbatga chorladik.


-Bizning «Bo'ston iqtidorli bolalar litsey-internati» tashkil etilganiga endigina bir yil bo'ldi, ammo o'quvchilarimizning bu fursat ichida erishgan yutuqlari talaygina. Bilim maskanimizda Jizzax viloyatidan tashqari Sirdaryo, Samarqand viloyatlaridan jami 300 ga yaqin iqtidorli bolalar tahsil olishadi. Ular o'qish bilan birgalikda litsey qoshida tashkil etilgan 15 dan ortiq har xil to'garaklarga muntazam qatnashib, o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Ayniqsa, kompyuter texnologiyasi, adabiyot va jurnalistika, ingliz tili, mohir qo'llar, naqqoshlik va xalq amaliy san'ati kabi qator to'garaklar mashg'ulotlarida o'quvchilar gavjum. Bundan tashqari sport bo'yicha ham qator to'garaklar mavjud. Iqtidorli o'quvchilarimiz

nufuzli o'rinlarni egallashgan.

O'quvchilarimizdan Shohista Rajabqulovaning qalb qo'ri bilan chizgan rasmlarini, Zulfiya mukofotiga nomzodi tavsiya etilib, yoshlar o'rtasida tumanda 1-o'rinni egallagan 9-sinf o'quvchisi Manzura Alimova bitayotgan she'riy satrlarini ko'rib qalbingiz quvonchga to'ladi.

O'quvchilarimizning erishayotgan yutuqlaridan biz ustozlar juda mamnunmiz. Hali ta'lim



maskanimizdan ko'plab Mahzunalar, Nodiralar, Ulug'bek va Mirzo Boburlarning izdoshlari yetishib chiqishiga ishonamiz.

O'quvchilarga berilayotgan ta'lim borasida yangiliklarni amalga qo'llashda qator tadbirlarni amalga oshirayapmiz, jumladan, o'quvchilarga har bir dars ko'rgazmali qurollar, badiiy adabiyotlar hamda amaliy tajribalar yordamida o'tiladi. Har bir bolaning iqtidoriga qarab turli kasblarga yo'naltirib boramiz. Bolalarning erkin fikrlash qobiliyati kuchli bo'lganligi uchun har bir o'quvchi bilan alohida mashg'ulot olib boriladi. Bu esa o'quvchilarning bilimini yanada

ONAMEHRI

Gar ona mehri bo'lsa zabardast, Hattoki tog'lar ham bardosh berolmas. Gar shodlikni quvonchga ulashuvchi baxt, Gar g'amlikni yuvuvchi bulut bo'lsa bas. Onalar mehri buloqday zilol. Nurlarin sochguvchi falakda hilol. Onalar ko'ngli ko'rmasin zavol, Onalar mehrini qalblaringga sol.

SHE'RLARIM

G'amga to'lgan kunlarimda, Yolg'iz qolgan tunlarimda, Aytolmagan unlarimda, Sen she'riyat hayotimsan. Unutaman o'z-o'zimni, Sog'inaman do'st so'zingni, So'qmoqlardagi izimni, Sen she'riyat hayotimsan. Qahrim kelsa yomonlarga, Dovul esgan tomonlarga, Orom tilab omonlarga, Sen she'riyat hayotimsan.

Manzura ALIMOVA,

«Bo'ston» iqtidorli bolalar litsey-internati»ning 9-sinf o'quvchisi.



«KICHKINTOY»NING -KICHKINTOYLARI

Toshkent viloyati «Kichkintoy» bolalar uyi Yangiyo'l shahrida Navro'z dahasida joylashgan. Bolalar uyi 1998 yil 1 iyun kuni tashkil topgan. Bu maskanda hozirgi kungacha 270 nafardan ziyod bola tarbiya olib, yaxshi sharoitda yashamoqda. Malakali bosh shifokor Tohira opa Ismoilova «Kichkintoy» bolalar uyi tashkil etilgandan buyon, bu yerda samarali mehnat qilib kelmoqda.

- Bizning bolalar uyimizda besh yil ichida bir qator yangiliklar amalga oshirildi. Kichkintoylar uchun yangi kiyim-kechaklar berilib, xonalar qattiq jihozlar bilan ta'minlandi, - deydi biz bilan

suhbatda Tohira opa. - Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, «O'zbekistonimizdagi hamma farzandlar mening farzandim». Bu otashin so'zlar zamirida chuqur ma'no bor. Ana shu so'zlarni yurakdan his qilgan homiylarimiz, tarbiyalanuvchilarimiz uchun o'z yordamlarini doimo darig' tutmay kelayaptilar, - suhbatini davom ettirarkan ta'kidlaydi Tohira opa.

- Ayniqsa, APKO «Lazzat», «Yog'-moy hissadorlik jamiyati, Prezident qoshidagi Qurilish va Jamiyat Akademiyasi, Sog'lom Avlod, Qizil yarim-oy jamiyati, Yangiyo'l shahridagi Bioximiya zavodining ko'magidan kichkintoylar mamnun. Yangiyo'l shahrida yurtboshimiz Islom



Karimov vakili bo'lmish shahar hokini Zafar Fayzullayevning bolalar uyi uchun qilayotgan xayrli ishlarini alohida ta'kidlashim zarur. Shu murg'ak go'daklarni otalarcha boshini silayotganlarga rahmatlar degim keladi.

O'zbek millati - yetimparvar insonlardir. Eng qiyinchilik - urush vaqtida ham 10-12 nafar bola asrab olib boqqan oilalarimiz bor va ular hozirgi kunda ham ko'p

uchraydi. Yoshlarimiz to'qlikka sho'xlik qilishmoqda. Ota-onaga, qo'ni-qo'shniga bildirmaslik niyatida farzandlaridan voz kechib shifoxonalarga tashlab ketishmoqda. Bir gunohga ikkinchi gunoh qo'shib bola tirik yetim bo'lmoqda. Lekin mehribon va aziz insonlar yurtimizda kam emas. Bir misolni aytmoqchiman. Parkent tumanidan Baxtiyor ismli bir go'dak bolalar uyiga keltirildi. Bolaning onasi go'dakka ko'p zahmat yetkazgan va u darmonsiz tug'ilgan. Go'dakni NII O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash klinikasiga joylashtirdik. Bu yerda professor Dilbar Mahmudova boshchiligidagi malakali professor, vrach va hamshiralari

o'z yordamlarini ayamay uni parvarishlab, sog'-salomat qo'limizga topshirishdi. Hozir Baxtiyorjon «Kichkintoy» bolalar uyida farzandimiz bo'lib tarbiya olmoqda.

Ha, bolalar uyimizda har bir jajigina insonning o'z tarixi bor. Ularni ko'cha-kuyga, axlatxonalarga, pod'yezlarga, bolalar uyining eshigi tagiga tashlab ketishgan.

Bolalar uyimizda hamma sharoitlar muhayyo, xonalar shinam, ozoda, bolalar uchun kiyimlar, oziq-ovqatlar yetarli,

Go'daklarni oq yuvib, oq tarayotgan o'z kasbi jonkuyarlari Difuza Ahmedova, Natalya Sizman, Shoira Yo'ldasheva, Larisa Zaritova, Lyuba Abramova,

Mukarram Alimova kabilar kichkintoylar qoshida doimo parvona. Ammo ona mehrini, onasutini, uning allasi o'rnini dunyoda hech narsa bosolmaydi.

Abduhamid

ABDUG'AFFOROV.

Suratkash:

Xolmurod

TOSHMUHAMMEDOV.





DUSHAYMON

Yana bir munavvar tong otib, oftobning zarrin nurlari qishloq uzra yoyildi. Ketma-ket qichqirayotgan xo'roz tong otganidan

odamlarni voqif qilardi. Pastakkina devor bilan o'ralgan, shuvoqlari ko'chib ketgan kichkinagina uydan Xolposh buvi sekin chiqib kelarkan, pishillab uxlab yotgan nabiralari havas bilan qarab qo'ydi. Hasan-Husanlar bir-birlarining pinjariga kirib ketgudek yopishib uxlashardi. Xolposh buvi hovlidagi ariqdan suv olib sepa boshladi. Ichkari xonadan avval Husan, keyin Hasan chiqib kelishdi. Hasan har doimgidek Husanning jig'iga tega boshladi.

-Husan, suv quyib yubor.

Husan obdastani oldi-da, Hasanga suv quya boshladi. U yuvinib bo'lgach, Husanga suv sepib qochdi.

-A-ah-moq,-dedi Husan tutilib.

-Duduq, ichida quduq,-dedi Hasan yugurib ketarkan. Xolposh buvi bularning janjaliga o'rganib qolgani uchun koyimadi. Sekin supurgini qo'liga olib, hovlini supura boshladi.

-M-menga bering,-dedi Husan va buvisining qo'lidan supurgini olib, supura boshladi. Xolposh buvi Husanni kuzatib turar ekan, kap-katta bo'lib qolibdi, vaqtni o'tishini qarang-a, deb qo'ydi.

Xolposh buvi Husanni ko'rsatmagan shifokoriyu tabiblari qolmadi. Hatto eng nomi chiqqan tabiblarinikiga ham borib keldi. Mana, Husan asta-sekin gapirayapti. Shunisiga ham rahmat, xudoyim, o'zingga shukr.

Ta'til kunlari yoki dam olish kunlari shaharning diqqinafas havosidan charchab, buvisinikiga dam olishga, yordam berishga keladigan bu aka-ukalarga hamma havas qiladi. Hasan sho'x-shaddod, Husan esa og'ir, bosiq. Keyingi paytlarda kam gapiradigan bo'lib qolgan. Uyaladi-da, axir 7-sinfda o'qiydi. Ba'zi sinfdoshlari uning ustidan kulishadi. Hatto Hasan ham ularga qo'shilishib kuladi. Choy ichib bo'lishgach, Xolposh buvi qo'ylarini aka-ukalarning oldiga solib

Hikoya

berdi. -Yana urishib, hammaga sharmanda bo'lib yurmalarim, uyat bo'ladi, - deb tayinladi Xolposh buvi.

Ular dalaga qo'ylarni haydab

Dalada bolalar ko'p, hamma

yoki sigirlarini yoyib,

to'p tepishardi. Hasan

qo'ylarni Husanga

topshirib, o'zi bolalar

bilan o'ynagan ketdi.

-M-me-nam boray,-

dedi Husan.

-Nima qilasan,

qo'ylarni boq, to'p

tepaman deb yiqilib tushma,-

deb Hasan uni tashlab ketdi. Husan chetda bolalarning to'p tepishini havas bilan tomosha qilib o'tirardi. Shu payt Hasan tepgan to'p darvozabonni yiqitib, nariga uchib ketdi. Darvozabon bola esa to'p ketidan yugurishning o'rniga Hasanning oldiga yugurib kelib, uni yoqasidan olib ura boshladi. Hasan shoshib qolganidan nima qilishini bilmas, bola esa uni ayamay yuz-ko'ziga tushirardi. Birpasda bolalar ularni o'rab olishdi. Lekin hech kimning barzangi boladan Hasanni ajratib olishga kuchi yetmasdi. Shu payt Husan o'rnidan turdiyu jahl bilan ular tomon yugurib ketdi. Bolalarni yorib kirib, barzangi bolani chetga uloqtirib yubordi, bu ham yetmagandek ustiga bostirib borib, mana senga, mana, mana, deb uni tushira ketdi. Hamma hayratda qotib qolgandi. -Mening akamga qo'lingni ko'tarma, mana, men bilan mushtlash, - derdi u. Uning birdan ravon gapirganiga Hasan yotgan joyida hayron bo'lib qoldi va birdan qattiq yig'lab yubordi. Yo'q, u og'riqning kuchidanmas, balki, Husanning hecham yonini olmaganidan, unga kerak paytda boshqalarga qo'shilib ustidan kulganidan yig'lardi...

Ozoda TURSUNBOYEVA.



1. Qaysi shoir «Malik ul-kalom» deb e'zozlangan?

- A. Navoiy
- B. Lutfiy
- C. Jomiy
- D. Dehlaviy

2. Kunjutning vatani?

- A. Panama
- B. Peru
- C. Afrika

ARALASH

TEST

D. Osiyo

3. Atlantika okeanidagi eng chuqur cho'kma qaysi?

- A. Puyerto-Riko
- B. Braziliya
- C. Kanar
- D. Argentina

4. Shimoliy muz okeanining dastlabki nomi?

- A. Sovuq okean
- B. Muz okean
- C. Shimoliy okean
- D. Giperboriy okean

5. Aristotel sharqda qanday nom bilan e'zozlangan?

- A. Naqsh ul-jahon
- B. Avitsenna
- C. Iskandarning ustoz
- D. Birinchi muallim

6. Osmon ibodatxonasi qayerda joylashgan?

- A. Pekinda
- B. Dehlida
- C. Qohirada
- D. Kitoda

7. Ko'ragoniy so'zining ma'nosi.

- A. Samoni o'rganuvchi
- B. Xon kuyovi
- C. Yulduzlar xaritasi
- D. Nujum ilmi

Sojida MARDIYEVA,

Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi 8-maktabning 6- «A» sinf o'quvchisi.


BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Eniga: 1. Angliya poytaxti. 2. Ispaniya poytaxti. 3. Kimyoviy unsur. 4. ..., Akbar, Antoni 5. Bino. 6. Sir. 7. Raqam. 8. ... Abdullayeva. 9. Qizlar guruhi. 10. «Kamila» siymosi. 11. Estoniya poytaxti. 12. Un, toyush. 13. O'zbek badiiy filmi. 14. Lahza. 15. Tropik meva. 16. Tamom. 17. Ta. 18. Ko'zgu. 19. «Setora» qo'shig'i. 20. Agar. 21. Qir, dala. 22. Bahor guli. 23. Nigeriya poytaxti. 24. To'tiqush turi. 25. Shokolad turi. 26. Dono. 27. Xalq. 28. ... va argonavtlar. 29. Hind filmi. 30. Afrika davlati. 31. Afrikadagi ko'l. 32. Qimmatning aksi. 33. 100 yil. 34. Soz. 35. Afrika davlati. 36. Poytaxti Maseru bo'lgan davlat. 37. Rang. 38. Qish ko'rki. 39. Onalar qo'shig'i. 40. Yovvoyi daraxt. 41. Kimyoviy unsur.

Bo'yiga: 1. Kimyoviy unsur. 2. Afrikadagi orol. 3. Tonggi shabboda. 6. Toza. 7. Ilhom Farmonov qo'shig'i. 10. Meva nomi. 16. Anvar va ... 18. Afrika davlati. 27. Hayron. 29. Sof. 32. Qo'shimcha.

Tuzuvchi:

Durdona AVAZOVA,
Toshkentdagi 85-maktabning
8- «A» sinf o'quvchisi.





Bizning to'garak



Yozgi ta'til kunlari bo'lishiga qaramay, yozgan she'riy mashqlari, ertagu hikoyalari, chizgan rasmlarini tahririyatimizga olib kelib, to'garagimiz a'zolari safiga qo'shilayotgan o'g'il-qizlarning soni ortgandan Respublikamizning turli viloyatlaridan sirtqi to'garagimizga a'zo bo'lish istagida yozilgan maktublarning ko'pligini aytmaymizmi?! ijodi bilan tanishar ekanmiz, qalblarida ijod hamnafas ezgulik, insoniylik, Vatanga tushunchalar ham nish urib, ildiz otib ilg'adik. Bu nimaning dalolati? Bu - she'riyatga mehr qo'ygan bolajonlar kengayib borayotgani, demakki, kelajagimiz,

ishonchli qo'llarda ekanligining yana bir dalolati. Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 4 - o'rta «V» sinf o'quvchisi Mahfuzaxon Akbarova ham ana shunday ijodkor kichkintoylardan biri. Yozgan ertaklari, c h i z g a n rasmlaridan jamlab, tahririyatimizga yuboribdi. Ular bizga manzur bo'ldi. Sizga-chi?

MUZQAYMOQ

Qo'limda bor bir jumboq,
Rangi oq, ta'mi qaymoq.
Bu nimadir, ayt o'rtoq,
Shoshilmasdan o'ylab boq.
O'y surishga nima bor,
Erib ketar-ku, Jabbor.
Shuhratjon shoshilib der:
«Qo'lingdagi tezroq ber!»



Muhabbat ISMOILOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumani, Oqtovuyq qishlog'idagi
7 - maktab o'quvchisi.

KAPALAK

Borliqni yomg'ir yuvar,
Qolmaydi zarra g'ubor.
Kamalak jilosidek,
Harir qanotlari bor.
Kapalakjon, kapalak,
Turfa ranglarga boysan.
Yengil parvoz etasan,
Ko'k husniga chiroyasan.



Sabohat RAHMONOVA,
Jizzax viloyati,
Jizzax tumanidagi
30 - o'rta maktabning
6 - «V» sinf o'quvchisi.

SOY

Hovlimizga qo'shni soy,
Baliqlarga juda boy.
Qirg'oqlari huzurbaxsh,
Suvi bo'lar shirin choy.



Rahmat aytib tog'larga,
Oqib ketar bog'larga.
-Meni iflos qilmanglar, -
Deydi aqli sog'larga.
Dilnoza MAMATQOSIMOVA,
Namangan viloyati,
Chortoq tumanidagi
22 - maktab o'quvchisi.



BOSHI TEPADA QOLGAN?

-Iye, nimaning rasmini chizding? -so'radi akasi
Sharifadan tanasi boru
boshi yo'q hayvonning
tasvirini ko'rsatib, - boshi
qani buning?



-E, shuni ham
bilmaysizmi, bu axir jirafa-ku.
Bo'yi uz-u-un bo'lgani uchun boshi tepada qolgan...

HOZIRJAVOB BOLA

-Akmal, qani ayt-chi, uchga-uch necha bo'ladi?
-Durrang, - javob berdi Akmal
hozirjavoblik bilan.



Guljamol ISOQOVA,
Jizzax viloyati,
G'allaorol tumani,
Baxmalsoy qishlog'i.

TOPISHMOQLAR

Barchamiz sevib uni,
Intiq kutib har kuni.
Ko'ramiz zavqlar osha,
Nomidir...

(mushuk)

Do'stlar orasida bo'lsa olis yo'l,
U bo'ladi bizga samimiy bir qo'l.

(xat)

Oddiy non ta'midan yaxshidir ta'mi,
Oddiy non bo'lsa ham ...

(non)

Bibimariyam XO'JANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi 57 - maktab o'quvchisi.

NON BILAN PICHQOQ

(Ertak)

Bir kuni odamlar nonushta hozirlab, nonni pichoq bilan kesib, dasturxonga qo'yishibdi. Nonushtadan so'ng pichoq nonga maqtana ketibdi:

-Odamlarga hayronman, seni juda e'zozlashadi, usiz hayot yo'q, deya ko'klarga ko'tarishadi. Men bu gaplarga sira qo'shilolmayman. Mana, o'zing ko'rdingu men bo'lmasam, seni nimada kesishadi? Shunday ekan, insonlar uchun eng zarur buyum - menman. Mensiz ularning holiga voy. Ochdan sillalari qurib ketadi...

Non esa og'ir, vazmin, o'ta mushohadali bo'lganligi uchun pichoqning gaplariga javob qaytarmay, mayingina jilmayib qo'yibdi. Pichoq uning holatini o'zicha



tushunibdi: «Mening odamlar uchun undanda muhimroq ekanligimni tan oldi», deya quvonibdi.

Tushlik vaqti bo'libdi. Odamlar yana dasturxon yozishibdi. «Hozir yana meni yo'qlashadi», deya shaylanib turgan pichoqni

hech kim qo'lga olmabdi. Chunki dasturxonga bo'rsildoq, tandirda yopilgan nonlarni qo'yishibdi va qo'llari bilan ushatib yeya boshlashibdi. Bu holni ko'rgan pichoqning kayfiyati tushib ketibdi. Nonning ko'ziga qay yuz bilan qarashini bilolmay, qoshiq va sanchqilarning orasiga berkinib olibdi.

Qissadan hissa shuki: Maqtanchoqlik - eng yomon odat, kamtarlik keltirar saodat.

Mahfuza AKBAROVA,

Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 4 - o'rta maktab o'quvchisi.



Ona yurti - oltin beshig

TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOYI
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feriza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter-
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot -
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset
usulida bosildi.

Adadi - 33729

Korxona manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № 1 - 502

Gazetani
Ma'suda
IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzili: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75